

Jinoyatlarni jilovlash

Jamiyat hayotiga qutqu soluvchi jinoyatlarga qarshi kurash barcha davlatlarning diqqat markazida turadi. Jinoyatning xillari ko'p bo'lgani kabi uning ildiz va shoxlari ham bisyor. Uni jilovlash taraqqiyat parvar xalqlarning orzusi. Shunday ekan bunday yo'sindagi tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

2018 - yil 25 - dekabr 3 - talabalar turar joyida talabalar turar joyi direktori Zokirjon Yuliyev tashabbusi bilan Yunusobod tumani 1-sonli IIB boshlig'i podpolkovnik Azamat Nuriddinov va 1-sonli IIB XPBPI boshlig'i Yusuf Sobirovlar "Diniy ekstremizm hamda jinoyatga qarshi kurash" mavzusida ma'ruza o'qidi. Talaba yoshlari orasida diniy ekstremizm hamda jinoyatga qarshi kurash bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish maqsadida ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ma'ruzachi A. Nuriddinov mamlakatimizda diniy ekstremizm va jinoyatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan amaliy harakatlar, bayramlarda ichib jinoyat sodir qilgan talabalar haqida hayotiy misollar bilan aytib o'tdilar. Tadbir qizg'in savol-javoblar va munozaralar asosida o'tdi.



3-TTJ tarbiyachi-pedagogi A.Xaitova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov